



MARKAZIY BANKNING BANKLARARO TO'LOV TIZIMI

Nasimova Yulduz Baxriddin qizi

Toshkent moliya instituti

Bank ishi fakulteti, 3-kurs BIA-82 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7932261>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-April 2023 yil

Ma'qullandi: 25-April 2023 yil

Nashr qilindi: 30-April 2023 yil

KEY WORDS

Markaziy bank, banklararo to'lov tizimi, elektron to'lovlar tizimi, pul birligi.

ABSTRACT

Ushbu maqola markaziy bank samarali milliy to'lov tizimini yo'lga qo'yish va uni takomillashtirish bo'yicha shu bugungi kungacha amalga oshirgan ishlari va amalga oshirayotgan bugungi kundagi islohotlari masalalari tahliliga bag'ishlanadi.

Bizga ma'lumki, respublikamizda amalda bo'lgan Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi bank mijozlarining asosan "yirik" to'lovlarini yalpi (har bir to'lovlar bo'yicha alohida) hisob-kitoblar asosida qayta ishlash, shuningdek, Kliring tizimi orqali "chakana" to'lovlarni tizim a'zolarining har bir moliyaviy operatsiyalari bo'yicha ma'lum bir davr mobaynidagi yig'ilgan talablari va majburiyatlarining sof pozitsiyasini aniqlagan holda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi mamlakatimizning mustaqillikdan keyingi dastlabki to'lov tizimi sifatida barcha to'lov tizimlari ishlashi uchun poydevor hisoblanadi. Hozirgi kunda Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimida to'lovlarni amalga oshirish maqsadida 31 ta tijorat banki to'lov tizimi foydalanuvchilari sifatida ulangan. Mazkur to'lov tizimida to'lovlar real vaqt rejimida yalpi hisob-kitob tamoyili asosida, ya'ni to'lov hujjati kelib tushgan vaqtdan boshlab bir necha soniyalar ichida to'lov amalga oshiriladi hamda natijasi haqida tashabbuskor va benefitsiarga xabar yuboriladi. Banklararo to'lov tizimining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi qo'yidagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi:

- O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni (11.11.2019 y., O'RQ-582);
- O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (05.11.2019 y., O'RQ-580);
- O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni (01.11.2019 y., № O'RQ-578);
- "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom (14.02.2006 y., № 1545);
- "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom (13.04.2020 y., № 3229).

Shuni alohida aytib o'tishim mumkinki, Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi va

Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari hisoblanadi. Banklararo to'lov tizimining foydalanuvchilari Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida vakillik hisobvaraqlariga ega bo'lgan banklar va moliyaviy institutlar hisoblanadi.


ASOSIY QISM

Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi (MB HKM) — uning vazifasiga tijorat banklarining Bosh ofislariga (banklar) vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish hamda ular o'rtasida elektron to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash kiradi. Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi (ABM) — amaldagi qonunchilik hamda ABM va banklar o'rtasidagi shartnomalarga muvofiq banklararo to'lov tizimining texnik, dasturiy va ekspluatatsion xizmatlarini ta'minlaydigan markaz.

Banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish uchun foydalanuvchi banklarning MB HKM bilan, banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlar o'tkazish uchun esa — ABM bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida tartibga solinadi.

O'tgan davrda Markaziy bankning banklararo elektron to'lov tizimini takomillashtirish, tizim a'zolari va foydalanuvchilari uchun ilg'or texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish borasida ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Respublika Markaziy banki tomonidan 2018 yildan boshlab yangi tahrirdagi "Yagona vakillik hisobvaraqlar hisob-kitob markazi" dasturiy majmuasi amaliyotga joriy qilingan bo'lib, dasturiy majmuada to'lov hujjatlarini real vaqt rejimida ham, «seans»lar asosida fayl rejimida ham ishlov berish mexanizmi ishga tushirildi.

Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lov hujjatlarining o'tish jarayoni quyidagi sxemada bayon etilgan:



Elektron to'lov hujjatlarining o'tish sxemasi¹

¹ <https://cbu.uz>

Yuqoridagi rasmdan mamlakatimizda bank tizimi, jumladan, elektron to'lovlar tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar natijasi o'tgan yillar mobaynida samarali bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali 2017 yilning birinchi yarmida 37,6 mln. ta yoki 318,7 trln. so'mlik banklararo to'lov hujjatlari amalga oshirilgan bo'lsa, joriy yilning birinchi yarmida esa bu ko'rsatkich 36,3 mln. tani yoki 385,3 trln. So'mni tashkil etmoqda. Solishtirilayotgan davrda Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali o'tgan to'lov hujjatlari soni 3,5 foizga kamayganligini, to'lov hujjatlari summasi esa 20,8 foizga oshganligini qayd etish joizdir.

To'lovlar banklardan faqatgina vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida amalga oshiriladi, agarda MB HKM va bank o'rtasidagi shartnomada boshqa holat kelishilmagan bo'lsa.

Ertalabki, soat 9-00 dan 17-00 gacha — banklararo hisob-kitoblar bo'yicha elektron to'lov hujjatlar (ETH)ni uzatish - qabul qilish - nazorat qilish vaqti. Banklar mazkur davrning har qanday vaqtida MB HKMga ETHlarni uzatishlari mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kreditni boshqarish xususiyat (parametr)laridan kelib chiqqan holda, banklararo ETHlarining o'tkazish vaqtini to'lov tizimi masalalarini nazorat qiluvchi rais o'rinbosarining yozma farmoyishiga asosan uzaytirishi mumkin. Bu haqda tizim qatnashchilari va foydalanuvchilari ETHga ishlov berish vaqtining tugashiga bir soat qolguniga qadar kechiktirilmasdan xabardor qilinadi.

1-jadval

To'lov xizmatlari tariflari²

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'lov tizimlarining xizmatlari uchun o'rnatilgan tariflar			
1		Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi	bir elektron to'lov hujjatini o'tkazish 200 so'm
2		Markaziy bankning hisob-kitob Kliring tizimi	majburiyatdan 0,005%
3		Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi	Bir elektron to'lov hujjatini o'tkazish (shu jumladan xato elektron to'lov hujjatini): - operatsion kun davomida 200 so'm - boshqa paytda 300 so'm

Bank tomonidan tizim orqali amalga oshirilgan to'lov summasidan (bank majburiyatidan).

² <https://cbu.uz/uz/payment-systems/tariffs-for-payment-services/>

Banklararo to'lovlar Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi (keyingi o'rinlarda — Tezkor to'lovlar tizimi) orqali uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. ABM Markaziy bank bilan shartnoma asosida Tezkor to'lovlar tizimi uzluksiz faoliyat yuritishi bo'yicha texnik, dasturiy va ekspluatatsion xizmatlarini ta'minlaydi.

Tezkor to'lovlar tizimiga ulanish uchun banklar Markaziy bankning banklararo to'lov tizimiga ulangan bo'lishi va ABMga murojaat qilishi kerak. Tezkor to'lovlar tizimi xizmatlaridan foydalanishda banklar axborot xavfsizligi talablariga rioya qilishlari shart. Banklar Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshiriladigan har bir elektron to'lov hujjatlarini elektron raqamli imzo kalitlari bilan himoyalanganligini ta'minlaydi.

Tezkor to'lovlar tizimi orqali banklararo hisob-kitoblar uzluksiz (dam olish kunlarisiz) tunu kun 24/7 rejimida onlayn tarzda amalga oshiriladi. Bunda tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i qoldig'idan kelib chiqqan holda limit belgilanadi va hisob-kitoblar mazkur limit qoldig'i doirasida amalga oshiriladi. Banklar to'lovlar uzluksizligini ta'minlash maqsadida vakillik hisobvaraqlari likvidligini ta'minlashlari shart.

To'lovni amalga oshirish uchun uzatilgan to'lov topshiriqnomasi muvaffaqiyatli qayta ishlanganligi to'g'risida Tezkor to'lovlar tizimidan tasdiq olinguniga qadar to'lovchining hisobvarag'ida to'lov topshiriqnomasidagi summaga teng bo'lgan summa zaxiralanadi va tasdiq kelgach hisobdan chiqariladi. Tezkor to'lovlar tizimidan tasdiq kelganidan so'ng mablag' oluvchilar hisobvaraqlariga kirim qilingan mablag'larni sarflash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bunga qadar mablag'larni oluvchi foydasiga o'tkazilgan mablag'lar uning hisobvarag'ida zaxiralanadi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublika to'lov tizimini yanada rivojlantirish borasida Markaziy bank tomonidan doimiy ravishda zarur islohotlar olib borilmoqda. Xulosa o'rnida qayd etish joizki, mamlakatimiz iqtisodiyotini oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblangan bank tizimining to'lov tizimlarini yanada isloh qilish va rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini yanada mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Mamadiyarov, M.Maxmudova, M.Kurbonbekova Bank ishi. Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 160 b.
2. Bank ishi. Darslik.(Sh.Abdullaeva) Toshkent, Toshkent Moliya instituti, 2003. 312 bet.
3. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. 2017yil.
4. Abdullayev Yo. Bank ishi. O'quv qo'llanma –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010-yil. - 532 bet. Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S.
5. <https://cbu.uz/uz/payment-systems/interbank/>
6. <https://lex.uz/uz/docs/-6385885>
7. <https://trustbank.uz/>
8. <https://www.spot.uz/>